

Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 707,7 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Ijara xizmatining o'sish sur'ati 157,4 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 866,2 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 707,7 mlrd.so'mga teng bo'ldi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiylajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (33,4 %) tashkil etadi.

2018 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan xizmatlar tarkibi, %



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashuvida hal qiluvchi rol o'yinaydi.


2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan ijara xizmatlari (57,4 %), ta'lim sohasidagi xizmatlar (27,4 %), moliyaviy xizmatlar (25,2 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (20,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (14,8 %) kabi xizmatlarda yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.

2018 yil yanvar-may oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlar ha-jmi 866,2 ming.so'mga teng bo'ldi. O'sish sur'ati o'tgan yilga nisbatan 103,9 % ni tashkil etdi.

2018 yil yanvar-may oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining ulush, %



Xizmatlar tarkibida eng katta ulush - savdo xizmatlari (33,4 %), transport xizmatlari (18,7 %), moliyaviy xizmatlar (14,4 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (9,0 %) ni tashkil etadi.

**2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'y'cha
bozor xizmatlari**

| | <i>Hajmi mlrd. so'm</i> | <i>O'sish sur'ati, % hisobida</i> | <i>Umumiy hajmga nisbatan % hisobida</i> |
|----------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------|-----------------------------------------------|------------------------------------------------------|
| Jami xizmatlar | 707,7 | 105,6 | 100,0 |
| <i>shu jumladan : xizmat turlari bo'yicha</i> | | | |
| Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari | 63,9 | 114,8 | 9,0 |
| Moliyaviy xizmatlari | 102,2 | 125,2 | 14,4 |
| Transport xizmatlari | 132,5 | 100,4 | 18,7 |
| <i>shu jumladan:</i> | | | |
| Avtotransport xizmatlari | 128,4 | 101,1 | 18,1 |
| Yashash va ovqatlanish xizmatlari | 18,2 | 103,7 | 2,6 |
| Savdo xizmatlari | 236,6 | 96,0 | 33,4 |
| Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar | 20,5 | 101,0 | 2,9 |
| Ta'lim sohasidagi xizmatlari | 27,9 | 127,4 | 4,0 |
| Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlari | 11,3 | 120,9 | 1,6 |
| Ijara xizmatlari | 18,0 | 157,4 | 2,6 |
| Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar | 22,8 | 100,8 | 3,2 |
| Boshqa shaxsiy xizmatlar | 21,3 | 100,4 | 3,0 |
| Me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar | 7,9 | 105,6 | 1,1 |
| Boshqa xizmatlar | 24,6 | 99,9 | 3,5 |

**Xizmatlar sohasi statistikasi
bo'limi**

Mas'ul: Sh.Usmonqulov
(0371)-230-86-31
(0367)-225-29-20